

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.X.Djalalova	
Texnologik sivilizatsiya va ijtimoiy-madaniy jarayonlarning falsafiy asoslari.....	104
Sh.T.Abbosova	
Sun'iy intellekt va ijtimoiy barqarorlikning falsafiy tahlili	108
U.K.Mamayusupov	
Jamiyat rivojlanishida strategik rejalashtirishning ahamiyati	110

SIYOSAT

I.M.Arzimatova	
Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari	113
L.S.Yuldasheva	
Diniy an'analar va xalq tabobatining uzviy rivoji: qadimdan islom davrigacha bo'lgan ilmiy-falsafiy tahlil.....	119
B.N.Eshbekov	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida siyosiy kommunikasiya transformatsiyasi	123
A.X.Borotov	
Xususiy mulkni himoya qilish: milliy amaliyot va xorijiy tajriba	127
J.M.Azamov	
Yangi tahrirdagi Konstitutsiya va Konstitusiyaviy qonunchilikning rivojlanish marra-lari.....	132
M.Kenjaye-va	
Yangi O'zbekiston sharoitida jamoat birlashmalarining tutgan o'rni	137
A.A.Ahrorqulov	
Notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni	141

TARIX

O.V.Mahmudov	
Musulmon Sharqi mutafakkirlari asarlarining Yevropaga tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlari	145
T.T.Safarov	
Farg'ona viloyatida rus qishloqlarining paydo bo'lishi tarixidan.....	154
B.X.Abdullayev	
Rahima Aminovanning xotin-qizlar ijtimoiylashuvidagi ilmiy izlanishlari.....	158
N.M.Ikromov, A.A.Fayziyev	
The exchange of tea and horses in trade relations between China and Central Asia	162
Z.Sh.Turg'unboyev	
Badriddin Al-Ayniy va uning Amir Temur haqida qarashlariga umumiy tavsif	166
G.X.Xasanboyeva	
Sovet hokimiyati yillari qishloq xo'jaligida sug'orish tizimining o'rni.....	171
A.Sharafiddinov	
XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Farg'ona viloyatida paxtachilik va paxta yakkaxokimligining vujudga kelishi	174

ILMIY AXBOROT

M.Y.Sultonov	
Tarixiy xotira va ma'naviy meros: Sharq mamlakatlari tajribasi.....	179



UO'K : 94(575.1) : 631.67

SOVET HOKIMIYATI YILLARI QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'ORISH TIZIMINING O'RNI РОЛЬ ОРОСИТЕЛЬНЫХ СИСТЕМ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ В ГОДЫ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ

THE ROLE OF IRRIGATION SYSTEMS IN AGRICULTURE DURING THE YEARS OF SOVIET POWER

Xasanboyeva Gulhayo Ximmat qizi 
O'zbekiston tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada respublika qishloq xo'jaligida sug'orish tizimining o'rni yoritilgan. Sovet hukumatining paxta hosilini ko'paytirishdagi yuritgan siyosati va buning natijasida sug'orish tizimida amalga oshirilgan islohotlar berilgan. Yangi erlarni o'zlashtirish uchun suv inshootlarining barpo etilishi, yangi kanal va ariqlarning qazilishi hosil olish uchun amalga oshirilgan bo'lsada, bu mahalliy aholining mehnat kuchi bilan amalga oshirilar edi. Bundan tashqari bu davrda Orol muammosining kelib chiqishi ham nafaqat sug'orish tizimiga balki ekologiyaga ham juda ko'p salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Аннотация

В статье рассматривается роль ирригационной системы в сельском хозяйстве республики. Описана политика советского правительства по повышению урожайности хлопка и проведенные в результате реформы ирригационной системы. Строительство гидротехнических сооружений для освоения новых земель, прокладка новых каналов и арыков, хотя и осуществлялись с целью получения сельскохозяйственных культур, осуществлялись силами местного населения. Кроме того, возникновение проблемы Аральского моря в этот период крайне негативно сказалось не только на ирригационной системе, но и на экологию.

Abstract

This article discusses the role of the irrigation system in the republic's agriculture. The policy of the Soviet government to increase cotton yields and the reforms implemented in the irrigation system as a result are presented. Although the construction of water structures for the development of new lands, the digging of new canals and ditches were carried out for the purpose of obtaining crops, they were carried out with the labor of the local population. In addition, the emergence of the Aral Sea problem during this period had a very negative impact not only on the irrigation system, but also on the ecology.

Kalit so'zlar: suv xo'jaligi, kanal, kollektor, melioratsiya, Orol, suv ombori, sun'iy sug'orish.

Ключевые слова: водное хозяйство, канал, коллектор, мелиорация, Аральское море, водохранилище, искусственное орошение.

Key words: water management, canal, collector, land reclamation, Aral Sea, reservoir, artificial irrigation.

KIRISH

Respublika dehqonchiligi qadimdan sun'iy sug'orishga asoslangan. Kanallar qurish, eskilarini ta'mirlash, ariqlarni tozalash ishlari doimo hashar yo'li bilan amalga oshirilgan. Bu an'ana hozirgacha davom etadi. Urushdan keyingi yillarda respublika hududida ko'plab yirik kanallar, suv omborlari, kollektorlar qurildi. 50-yillarning o'rtalariga qadar Sirdaryoda Boyovut kanali, Farg'ona va Namangan viloyatlari orqali o'tuvchi Oxunboboyev nomli kanal, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlarida Eski Angor kanali qurildi. Mustaqil O'zbekistonning tabiiy sharoitida sug'orish va suv xo'jaligi taraqqiyoti muhim hisoblanadi. Chunki, respublika aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va qishloq xo'jaligini rivojlantirish sug'orish tizimini rivojlantirishni talab etadi. Bunday ishlar iqlim sharoitini hisobga olish, atrof-muhitni muhofaza qilish davr talabidir. "Biz iste'mol qiladigan mahsulotlar, biz nafas oladigan havo, biz ichadigan suv, biz yashaydigan sayyoraga hayot bag'ishlovchi iqlim - barchasi tabiat tufayli" - deyiladi Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish - 2020" kun tartibida[1;388]. Shuning uchun ham O'zbekistondagi suv xo'jaligining hozirgi holatini to'la tasavvur qilish uchun uning sovet hokimiyati yillarida tashkil etilishi va rivojlanishi tarixiga e'tiborni qaratish zarur. Sovet hokimiyati davrida suv xo'jaligi ma'lum darajada rivojlangan bo'lsada, mustamlakachilik mazmunidagi siyosatga bo'ysundirildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sovet hukumronligi yillarida yaratilgan adabiyotlarda ham sug'orish tizimi haqida ko'p ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, Q.Abdullayev o'z dissertatsiyasida 1946-1964 yillardagi Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarining irrigatsiya va melioratsiya tizimini yoritgan. R.X Aminova esa 1917-1960 yillardagi sug'orish tizimi muammolarini tahlil etgan. O.K.Komilov O'zbekiston irrigatsiya tarixini 1951-1990 yillar misolida ko'plab daliliy materiallar asosida yoritgan. U Mirzacho'l, Jizzax, Surxon-Sherobod, Qarshi cho'llarining o'zlashtirilishi, yangi erlarni o'zlashtirish jarayonida sug'oriladigan erlarning melioratsiyalanish darajasi, suv omborlarining bunyod etilishi va ekologiyaga ta'siri masalalarini tadqiq etgan[3;8]. Ro'ziqulova M.ning tadqiqotida Markaziy Farg'onadagi o'zlashtirish, melioratsiya va sug'orish jarayonlarining 1950-1970 yillardagi holati umumiy jihatdan tahlilga tortilgan. I.A.Begmatov va A.K.Muhamedovlarning tadqiqotlarida 1959-1965-yillarda Farg'ona vodiysi suv xo'jaligi tizimida katta qurilish ishlari rejalashtirilgani, Farg'ona viloyatida 97 ming.ga er maydoni o'zlashtirilishi belgilangani, Quvasoy daryosi vodiysida Isfayramsoy tizimida 216,5 mln hajmli Karkidon suv ombori qurilgani keltirilgan[5;19]. Xudayqulova N.ning dissertatsiyasida Xorazm vohasining 1950-1990-yillardagi qishloq va suv xo'jaligiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Yuqoridagi barcha adabiyotlarda sovet davri respublika sug'orish tizimi atrofiga yoritilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

XX asrning 50-yillarda boshlangan respublikadagi cho'llarni o'zlashtirish ishlari sug'orish tizimiga ham ta'sir etdi. Ittifoq hukumatining ko'rsatmasi bilan 1956-yili Paxta etishtirishni ko'paytirish maqsadida Mirzacho'ldagi 300 ming gektar unumdor qo'riq erlarni sug'orish o'zlashtirishga qaror qilindi. Shu munosabat bilan uzunligi 127 km ga boradigan eng yirik janubiy Mirzacho'l bosh kanali, markaziy Mirzacho'l kollektori qurildi, shimoliy Mirzacho'l kanali kengaytirildi. Mirzacho'lning Jizzax mintaqasini suv bilan yaxshiroq ta'minlash uchun Jizzax suv ombori qurildi[4;421]. U 350 ming gektardan ortiq erini sug'orishga mo'ljallandi. Ayniqsa, Markaziy Farg'ona cho'llarining o'zlashtirilishi sug'orish tizimining yanada takomillashuvi zaruratini keltirib chiqardi. Ayni holatlardan kelib chiqib, 1959-yil 23-yanvarda O'zKP MQ va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining "1959-yilda Markaziy Farg'ona erlarini sug'orish va o'zlashtirish bo'yicha qurilish ishi dasturini tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilindi[8;36]. Unga ko'ra 1953-yildan 1961-yilgacha jami bo'lib 60,6 ming gektar erlarga suv chiqarilib, ekin maydonlarining meliorativ holati yaxshilangan[2;436]. Markaziy Farg'ona hududidan boshqa rayonlarda yangi erlarga suv chiqarildi. Hukumat tomonidan tizimga oid ko'plab qarorlar chiqarilishi suv inshootlari sonini ko'paytirdi. Ya'ni, KPSS MKning 1966-yil may plenumi "Don va boshqa qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori va kafolatlangan hosil olish uchun erlarning melioratsiyasini rivojlantirish to'g'risida qaror qabul qildi"[6;19]. Hamda, 1968-yil 63 km uzunlikdagi Markaziy Mirzacho'l kollektori qurildi. Bu sug'orish inshootlari Mirzacho'lni o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, Respublikaning boshqa mintaqalarida ham muhim inshootlar barpo etildi. Jumladan, Amudaryodan Buxoro viloyatiga suv etkazish maqsadida 1965-yili uzunligi 200 km bo'lgan Amu—Buxoro kanali qurildi. Uning suvini 67 m balandlikka tortib beruvchi yirik nasos stansiyalari bunyod etildi. Kanal ishga tushishi bilan Buxoro viloyatida 90 ming gektar er, shu jumladan, 26 ming gektar yangi erlar sug'oriladigan bo'ldi.

Xulosa qilganda, paxta yakkahokimligi siyosati negizida sug'orish tizimi ham takomillashdi. Shu boisdan sug'orish obyektlari qurish ishlari asta-sekin ommalashib bordi. Respublikada davlat byudjetidan mablag'lar ajratish ortib bordi. Buning natijasida yangi erlar o'zlashtirilib, sug'orish inshootlari ko'paydi. Barpo qilingan gidroinshootlar esa sug'orish tizimi va vodiydagi qishoq xo'jaligini rivojlantirishga ko'mak berdi. Lekin shunday bo'lsada, ayni davrda kelib chiqqan Orol muammosi respublika sug'orish tizimiga sezilarli ta'sir etdi. Ya'ni, suv sathining kamayishi ekin maydonlarining sho'rlanishiga olib keldi. Sho'rlangan suvlarni chiqarib yuborish yo'li bilan erlarning unumdorligi, ekinlarning hosildorligini oshirishga sharoit yaratish imkoniyati etarli emas edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021.
2. Abdullayev M. O'zbekistonda er-suv munosabatlari tarixi. – T.: Nurafshon biznes, 2024. – B 436.
3. Jabborova I. Qashqadaryo vohasida yangi erlarning o'zlashtirilishi va sug'orish tizimi tarixi(XX asrning 50-80 yillari misolida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya – Qarshi, 2022.
4. Nazirov B., Yaqubova D. O'zbekistonda er-suv munosabatlari tarixi(qadimgi davrdan hozirgi kunga qadar). – Termiz : Bekshoh print servis, 2023.

TARIX

5. Ro'ziqulova M. Markaziy Farg'ona qo'riq erlarning o'zlashtirilishi va sug'orilish tarixi (XX asrning 50-70-yillari misolida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Farg'ona, 2021.
6. Xudayqulova N. 1950-1990 yillarda Xorazmda yangi erlarni o'zlashtirish va suv xo'jaligi muammolari tarixi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Urganch, 2021.
7. Yo'ldoshev M. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ishchi kuchidan raqional foydalanish. – T.: O'zbekiston, 1982.
8. ФВДА, 1151-жамғарма, 1-рўйхат, 13-йиғма жилд, 36-варақ.